

**JANUBIY QORAQALPOG'ISTONDAGI BIRIKMALI OYKONIMLARNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10891966>

**Ikrom Xolmurotov**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Janubiy Qoraqalpog'istondagi birikmali oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlari, qo'llanilish o'rni, tilshunoslikdagi o'ziga xos o'rni xususida, turkiy oykonimlar bilan o'xshashlik jihatlari borasida so'z yuritiladi.*

**Tayanch so'zlar:** *oykonim, birikmali oykonim, ariq, nekronim, gidronim, ovul, mahalla, qishloq, ko'cha.*

**Абстрактный:** *В данной статье говорится об особенностях сложных идиом Южного Каракалпакстана, их месте употребления, их особом месте в лингвистике, а также их сходстве с турецкими идиомами.*

**Основные слова:** *ойконим, составной ойконим, ручей, некроним, гидроним, село, окрестность, село, улица.*

**Abstract:** *This article talks about the features of complex idioms of Southern Karakalpakstan, their place of use, their special place in linguistics, as well as their similarities with Turkish idioms.*

**Basic words:** *oikonym, compound oikonym, stream, necronym, hydronym, village, neighborhood, village, street.*

Jahon tilshunosligida nomlar, xususan, oykonimlar milliy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy nuqtai nazardan alohida ahamiyatga ega. Chunki ularda xalqning milliy belgilari, madaniy-ma'rifiy salohiyati va qarashlari, tabiat va jamiyatga mehr-muhabbati, e'zozu e'tirofi bir butun holda mujassamlashgan. Ayni vaqtda davlat tili bo'lgan o'zbek tiliga hamda uning tarixiga milliy, ma'naviy, etnolingvistik, etnografik, ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazarlardan qaralganda ham ko'zgu hisoblanadigan oykonimlar o'tmishda yurtimizda yashagan elat, urug', qabilalarning etnik nomlarini boshqa ob'ektlarga nom sifatida atash bilan bog'liq an'analari, turmush tarzi, ma'naviy merosi, madaniy boyliklari va milliy qadriyatlari to'g'risida ma'lumot beradigan bebaho lisoniy, tarixiy hamda geografik manbaalardan biri. Ular g'or va kapalarda yashagan odamlar bilan birga bugungi qishloq, mahalla, ovul, guzar, shaharcha va shahar darajasidagi rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Zero, «Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridi[1.B.39].

Dunyo tilshunosligida oykonimlarga jiddiy e'tibor berilmoqda. Sababi, oykonimlar aholi yashaydigan asosiy hududlar hisoblanadi.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeini ko'tarish, davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan qonun va qarorlar tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi[2.B.29].

Bugungacha Qoraqalpog'iston Respublikasidagi joy nomlarining ma'lum bir qismi umumiy planda talqin, tavsif va sharhlar berilib, ilmiy tahlilga u yoki bu darajada tortilgan. Ammo Janubiy Qoraqalpog'iston, bundan keyin JQ tarzida beriladi, hududidagi oykonimlar «Onomastika», «O'zbek onomastikasi» ilmi-fanining hozirgi talablari darajasida monografik planda maxsus ilmiy tadqiq etilmagan, ularning topogrammatik, leksik-semantik va etimologik xususiyatlari jiddiy o'rganilmagan. «O'zbek onomastikasi materiallari hozirga qadar tavsifiy usulda o'rganilib kelindi. Endilikda ularni nazariy usullarda tadqiq qilish imkoniyati tug' ilmoqda». SHu sababli ham Janubiy Qoraqalpog'iston (keyingi o'rinlarda JQ ) oykonimlarini ilmiy va amaliy jihatlardan monografik yo'nalishda ma'naviy meros, madaniy hamda umuminsoniy boyliklarimizni onomastik madaniyat sifatida o'rganish va lingvogeografik nuqtai nazardan ilmiy-amaliy asoslarda tadqiq etish zaruriyati sezilmoqda.

Birikmali oykonimlar mazkur hudud oykonimlari tizimida salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Ularda quyidagi oykonimik indikatorlar faol qo'llanadi: ovul (o.), tom, bog', qal'a, tuba, bo'z, qozi, qabriston va boshqalar.

Ularga misollar Qoraqipchoq ovuli (Amudaryo t. Choyko'l OFKdagi j/x), Qoramon kichik ovuli (Amudaryo t. Choyko'l OFKdagi j/x). Ba'zi birikmali oykonimlarning o'zi birikmali bo'lgani uchun hamda qo'llanish me'yori past bo'lgani sababli oykonimik indicatorsiz ham qo'llanadi: Vais Xo'ja (Ellikqal'a t. Sarabiy OFKdagi o.); Ulli bog' (To'rtko'l t. Oxunboboev OFKdagi o.); Toza qal'a (Amudaryo t. Qipchoq OFKdagi o.) va boshqalar. Ushbu turdagi oykonimlar ikki xil qo'llanali: 1) oykonimik indikatorlar bilan qo'llanadigan oykonimlar; 2) oykonimik indicatorsiz qo'llanadigan oykonimlar.

Birikmali oykonimlarni ikkinchi va birinchi komponentlari qanday so'zlar bilan kelishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1) ikkinchi komponentli tom so'zi bilan shakllangan birikmali oykonimlar Besh tom (Bestom) (Amudaryo t. Qipchoq OFKdagi o.), Beshtom ovuli (Amudaryo t. Qipchoq OFKdagi o.);

2) ikkinchi komponentli tog' // tov so'zi bilan shakllangan birikmali oykonimlar: Qirqtom (Beruniy t. ovul, etnotoponim), Oqtov ovuli (Amudaryo t. CHoyko'l OFKdagi j/x), Qirqtov (Beruniy t. o., oronim);

3) ikkinchi komponentli bog' so'zi bilan hosil bo'lgan BOlar Ulli bog' (To'rtko'l t. Oxunboboev OFKdagi o.);

4) ikkinchi komponentli tuba so'zi bilan shakllangan BOlar: Kepakli tuba (Beruniy t. o., oronim);

5) ikkinchi komponentli ovul so'zi bilan shakllangan BOlar Arab ovuli (Ellikqal'a t. Qilchinoq OFKdagi o.), Chinoq ( // Cho'noq) ovuli (Amudaryo t. Qipchoq OFKdagi o.), Do'son ovuli (Beruniy t. o., ant.), Ko'kcha ovul (Amudaryo t. Qipchoq OFKdagi o.), Bo'z

ovul (Beruniy t. o.), Qora qipchoq ovuli (Amudaryo t. Choyko'1 OFKdagi j/x), Beg ovul (Amudaryo t. Qipchoq OFKdagi o.), Olti ovul (Beruniy t. o., miqdor bilan ifodalanuvchi toponim), Toma ovuli (Ellikqal'a t. Sarabiy OFKdagi o.), Tuyoqli ovuli (Amudaryo t. CHoyko'1 OFKdagi j/x), Boltan ovul (To'rtko'1 t. Oqqamish OFKdagi o.), Qassobqal'a ovul (Amudaryo t. CHoyko'1 OFKdagi j/x);

6) ikkinchi komponentli qal'a so'zi bilan shakllangan birikmali oy-konimlar Toza qal'a (Amudaryo t. Qipchoq OFKdagi o.) - bu nom ovul oyko-nimik indikatori bilan birga qo'llanadi: Toza qal'a (Amudaryo t. Qipchoq OFKdagi ovul); Toshqal'a (To'rtko'1 t. Tozabog'yop OFKdagi ovul); Tozaqal'a ovuli (Amudaryo t. CHoyko'1 OFKdagi j/x); Taqir qal'a (Amudaryo t. Amir Temur OFKdagi qal'aning nomi bilan atalgan oykonim. Uning atrofi giyoh o'smaydigan keng yalanglik bo'lgani uchun Taqir qal'a deb nomlangan); Yonboshqal'a (To'rtko'1 t. YOnboshqal'a OFKdagi o.).

7) ikkinchi komponentli bo'z so'zidan yasalgan BOlar: Biybozor bo'z (Beruniy t. o.), Biybozor qozi (Beruniy t. o., ant.);

8) ikkinchi komponentli yo'l so'zi bilan shakllangan BOlar: Qizil yo'l ovuli (Amudaryo t. CHoyko'1 OFKdagi j/x);

9) ikkinchi komponentli fitonim bo'lgan so'z bilan shakllangan BO: Uch gujum (To'rtko'1 t. Oxunboboev OFKdagi ovul);

10) ikkinchi komponentli etnonim bo'lgan BOlar: Ko'na Machoy (Amudaryo t. etnooy.), Ko'go'zak (Amudaryo t. etnooy.), Ko'kqarg'a (Amudaryo t. etnooy.), Ko'k suvli (Amudaryo t. etnooy.);

11) birinchi komponenti etnonim bo'lgan BOlar: Qozoq arna (To'rtko'1 t. Tozabog'yop OFKdagi o.); Os qal'a (Amudaryo t. Choyko'1 OFKdagi j/x); Begovul (Beruniy t. o., etnooy.); Xitoy ovuli (Amudaryo t. Choyko'1 OFKdagi j/x); Shix ovuli (Amudaryo t. Choyko'1 OFKdagi j/x); Os ovuli (Amudaryo t. Choyko'1 OFKdagi j/x);

12) birinchi komponenti sho'r so'zi bo'lgan oykonimlar: Sho'rqal'a (Amudaryo t. CHoyko'1 OFKdagi j/x);

13) birinchi komponenti zoonim bo'lgan oykonimlar: Shag'al ovuli - chiyabo'ri (shakl) (Amudaryo t. Choyko'1 OFKdagi j/x);

14) ikkinchi komponenti yomon so'zi bilan hosil bo'lgan oykonimlar: O'nolti yomon (Beruniy t. ovul, sotstoponim);

15) oykonimik indikatori ovul emas, qabrison oykonimik indikator bo'lishiga ko'ra shakllangan oykonimlar: Ibodulla bobo qabrison (Amudaryo t. Choyko'1 OFKdagi j/x), No'g'oy bobo qabrisoni (Amudaryo t. CHoyko'1 OFKdagi j/x), Qo'lbergan bobo qabrisoni (Amudaryo t. CHoyko'1 OFKdagi j/x). Bu toponimlarni tushunish uchun Toshkent shahridagi Ko'kcha qabrisonini e'tiborga olish kerak, chunki bu qabrison yonida aholi uy-joylari ham borligini hisobga olish lozim;

16) o'zi joylashgan erning tabiiy geografik xususiyatlarini namoyon qiluvchi oykonim: Ushoq ovuli (Amudaryo t. Choyko'1 OFKdagi j/x); Yolpoq ovul. (Beruniy t. ovul,

geooykonim); Qayir ovul (Amudaryo t. Qipchoq OFKIdagi o.); Chuqurqoq ovuli (Ellikqal'a t. j/x); Chaqcha ovul (Amudaryo t. CHoyko'l OFKIdagi j/x);

17) kishi ismi-sharifi va laqablari bilan shakllangan oykonimlar: Kosim Nurimbetov (Ellikqal'a t. Bo'ston sh. ko'cha, ant.), Vais Xo'ja (Ellikqal'a t. Sarabiy OFKIdagi o.); Sadraddin Ayniy (Ellikqal'a t. Bo'ston sh. ko'cha, ant.); Maxsum ovuli (Amudaryo t. CHoyko'l OFKIdagi j/x); Qora buva (Beruniy t. o., ant.); Yo'ldosh Qurbonov (Ellikqal'a t. Bo'ston sh. ko'cha, ant.); I. Olloberganov (Ellikqal'a t. Bo'ston sh. ko'cha, ant.); G'afur G'ulom (Ellikqal'a t. Bo'ston sh. ko'cha, ant.);

18) ikkinchi komponenti mergan so'zi bilan hosil bo'lgan oykonimlar: Beshmergan (Beruniy t. ovul);

19) ikkinchi komponenti ko'l bo'lgan oykonimlar: Ko'xna To'rtko'l (To'rtko'l t. Oxunboboev OFKIdagi ovul);

20) birinchi komponenti rangni anglatadigan oykonimlar: Qizil savla sohili (To'rtko'l t. Tozabog'yop OFK ovul).

21) ikkinchi komponenti harakatni anglatuvchi oykonimlar: Qumboskan (To'rtko'l t. Qumbosgan OFK o.);

22) ikkinchi komponenti ko'cha va tor ko'cha toponimik indikatorlari bilan hosil bo'lgan oykonimik dromonimlar: Olimpiya berk ko'chasi (To'rtko'l t. Qumbosgan OFK); Orol tor ko'chasi (To'rtko'l t. Qumbosgan OFK); Ibn Sino tor ko'chasi (To'rtko'l t. Qumbosgan OFK ko'cha).

23) ikkinchi komponenti ariq va kanal ma'nosidagi yop so'zi bilan shakllangan gidronimik oykonimlar: So'qili yop, Jumaketgan yop, Ko'kcha yop, Oqboshli yop (To'rtko'l t. Ullibog' OFKIdagi kanal va aholi punkti). Ushbu oykonimlar birikma ko'rinishida bo'lib, faqat o'rganilayot hudud toponimiyasiga xos individuallikka ega.

Oykonimlarning onomastik-grammatik xususiyatlarining talqini, tavsifi va tahlili bilan bugungi kundagi "Onomastika", "O'zbek onomastikasi" sohalari doirasida yangi ilmiy nazariy konsepsiyalar va yangi ilmiy tahlil yo'llari asosli va ishonchli ekanligini ham ilmiy nazariy, ham ilmiy amaliy xarakterdagi dalillar bilan asoslandi. Bu esa onomastik leksika nomlarni farqlashda, qayta nomlashda, ularning xususiyatlarini, xususan, toponimik ma'nolarini ochishda onomastik-grammatikaning alohida ahamiyatga egaligini ta'kidlash lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. –Toshkent, Fan, 2013. –B. 261.
2. Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. –Moskva: Nauka, 1978. –S. 39; Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. –Moskva: Nauka, 1988. –S. 41.
3. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. I jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 29

4. Murzaev E. M. Ocherki toponimiki. –Moskva: Мысль, 1974. –S.21–22.; Juchkevich V. A. Общие и региональные географические закономерности топонимии. ADD. –Minsk, 1970. –35 s.; Juchkevich V. A. Общая топонимика. –Minsk: Высшейшая школа, 1980. –288 s.;
5. Molchanova O.T. Toponimicheskiy slovar gornogo Altaya. Gorno–Altayskoe otделение Altayskogo knijnogo izdatelstva, 1979. –398s.;
6. Garipova F. G. Issledovaniya po gidronimii Tatarstana. –Moskva: Nauka, 1991. –294 s.;
7. Superanskaya A. V., Stalmane V. E., Podolskaya N. V., Sultanov A. X. Teoriya i metodika onomasticheskix issledovaniy. – Moskva: Nauka, 1986. –S.10–11.;
8. Starostin B. A. Nekotorye metodologicheskie problemy teorii sobstvennykh imen. // Imya naritsatelnoe i sobstvennoe. – Moskva: Nauka, 1978. –S. 34–42.
9. Jalilov O. XIX-XX asr boshlarida qoraqalpoqlar tarixidan. –Toshkent: Fan, 1986. –B. 3-144 .
10. Enazarov T. J. Joy nomlarining mukammal tasnifi etimologik tahlil asosidir // Geodeziya, kartografiya va kadastr jurnali. –Toshkent, 2000. 1(3)-son. –B.12-16.